



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-dekabr

770-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrda PQ-450-sonli qarori ijrosi haqida”gi 615-sonli qarori yuzasidan**

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrda PQ-450-sonli qarori ijrosi haqida”gi 615-sonli qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrda PQ-450-sonli qarori ijrosi haqida”gi 615-sonli qarorini rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Kurash xalqaro assotsiatsiyasi va O‘zbekiston kurash federatsiyasining Xalqaro kurash institutining kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha faoliyatini yanada kengaytirish hamda unga quyidagi qo‘shimcha vazifalarni yuklash to‘g‘risidagi tashabbusi ma‘qullanganligi;

kurash milliy sport turi bo‘yicha xalqaro darajadagi malakali trenerlar va hakamlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirib borish tizimini joriy etishi;

kurash milliy sport turi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirib borish, shuningdek, zarur o‘quv-uslubiy va ilmiy-amaliy qo‘llanmalarni ishlab chiqishni tashkil qilishi;

kurash milliy sport turining yangi yo‘nalishlarini joriy qilishda ishtirok etish, ularni ommalashtirish choralarini ko‘rishi;

kurash milliy sport turi trenerlari va hakamlarini xorijiy davlatlarga “eksport” qilishni yo‘lga qo‘yishi;

kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu milliy sport turini umumjahon miqyosidagi sport turiga aylantirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirib borishi;

O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari zimmasiga Kurash xalqaro assotsiatsiyasi va Xalqaro kurash institutining kurash milliy sport turini xalqaro miqyosda rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha faoliyatiga ko'maklashish vazifasi yuklanganligi;

bunda, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarining Kurash xalqaro assotsiatsiyasi va Xalqaro kurash institutining kurash milliy sport turini xalqaro miqyosda rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha faoliyatiga ko'maklashish borasidagi hisobotlarini har olti oyda bir marotaba Oliy Majlis Senatida eshitish amaliyoti yo'lga qo'yilganligi;

belgilab qo'yilishicha;

O'zbekiston kurash federatsiyasiga o'z moliyaviy holatidan kelib chiqib Xalqaro kurash instituti faoliyatini moliyalashtirib borish uchun zarur mablag'larni yo'naltirib borish huquqi berilganligi;

mahalliy yirik tadbirkorlik subyektlarini Kurash xalqaro assotsiatsiyasiga rasmiy homiy sifatida jalb qilib borish yo'lga qo'yilishi;

jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida kurash milliy sport turi bo'yicha mahalliy mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish Xalqaro kurash instituti bilan hamkorlikda amalga oshirilishi;

kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Sport vazirligi "Yo'l xaritasi"da ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi bo'yicha har yarim yilda bir marotaba Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borishi;

kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirish bo'yicha faoliyatni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish maqsadida:

a) kurash milliy sport turi bo'yicha jahon chempionatlarida (kattalar, yoshlar) g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilar, shuningdek, ularni tayyorlagan trenerlarni Davlat budjeti mablag'lari hisobidan Osiyo va Paraosiyo o'yinlarida g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilar, shuningdek, ularni tayyorlagan trenerlar uchun belgilangan rag'batlantirish summalarining yarmi miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantirib borish tizimi joriy etiladi;

b) Xalqaro kurash instituti faoliyatini moliyalashtirish 2026-yildan boshlab Toshkent shahar hokimligi mahalliy budjetidan respublika budjetiga o'tkaziladi hamda ushbu maqsad uchun har yili 4,5 milliard so'm miqdoridagi mablag'lar ajratib borilishi;

bunda, ushbu qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun Xalqaro kurash institutiga 2025-yilda Sport vazirligiga rivojlantirish dasturlari uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan qo'shimcha 1,5 milliard so'm miqdoridagi mablag'lar ajratilishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4881-son qaroriga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Sport maktabi (M.Abduqodirov), manfaatdor bo‘limlar, idora va tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda PQ-450-sonli qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**